

**O‘QUVCHILARNING GEOGRAFIK KARTALAR HAQIDA  
TUSHUNCHALARNI BOYITISH USULLARI**

**Gaypova Roza Tursinbaevna,**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya o‘qitish metodikasi kafedrası  
dotsenti, p.f.n.*

**Hakimov Suhrob Abdunazar o‘g‘li,**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavr ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs  
talabasi*

**Sobirova Dona Ziyod qizi,**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavr ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs  
talabasi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170763>

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda ta‘lim va tarbiyaning bosh maqsadi va mazmuni tubdan yangilanib bormoqda. Binobarin, innovatsion pedagogik texnologiyalar raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari hamda pedagog-o‘qituvchiga qo‘yiladigan zamon talablari, pedagog o‘qituvchining kasbiy mahorati, o‘quvchilarning ongi, bilimi, dunyoqarashini o‘stirish, faolliklarini oshirish orqali ta‘lim samaradorligiga erishish bilan bog‘liq masalalar majmuini ifodalaydi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarga ko‘rsatilayotgan g‘amxurlik, yaratilayotgan imkoniyatlar ularning o‘z ustida izlanishlari, tinmay mehnat qilishlari va yangiliklarni tez o‘zlashtirishi hamda zamon talablari darajasida bilim olishlari uchun katta imkoniyatlar eshigi ochildi.

Geografik kartalar tabiat va jamiyat tomonidan yaratilgan va atrofimizni o‘rab turgan borliqni ma‘lum bir vaqtdagi tasvir modeli bo‘lib, insonning mehnat mahsulidir. Geografik kartalar yordamida juda ko‘plab ilmiy va amaliy muammolar hal qilinmoqda va kelajakda hal qilinishi mumkin.

Geografik kartalar tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasini o‘rganishda, geologik tadqiqotlarda, qazilma boyliklarni qidirib topishda, er resurslarini o‘rganib undan oqilona foydalanishda, er usti va er osti suvlarini geografik jihatdan o‘rganib, ulardan unimli foydalanishda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda, hududlardagi ekologik vaziyatni o‘rganib chora va tadbirlarni amalga oshirishda va nihoyat harbiy sohada keng foydalanilmoqda.

Maktab geografik kartalarning boshqa kartalardan farqi ularning o‘quvchilarning yoshi va rivojlanishiga moslab chiqarilishi bo‘lib hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun oddiyroq, tushunishi va o‘qilishi ason bo‘lgan kartalar chiqariladi.

Umumiy taʼlim maktablarida qoʻllaniladigan kartalarni quyidagi guruhlariga taqsimlashimiz mumkin:

- devoriy kartalar;
- darsliklar ichidagi kartalar;
- atlaslar;
- globuslar;
- chiziqli kartalar.

6-sinf «Tabiiy fanlar» darsligida 41-mavzu «Geografik xaritalar» deb nomlanib, unda kartani oʻrganish nima uchun zarur va geografik kartalarni qanday sohalarda foydalanish mumkinligi hamda umumiygeografik va mavzuli kartalar haqida soʻz boradi.

7-sinfda “Geografiya” fanin oʻrganish jarayonida «geografik xaritalar» mavzusida geografik kartalar, tabiiy geografik kartalar: relef karta, foydali qazilmalar karta, tuproq karta, oʻsimliklar karta, hayvonot karta, iqlim karta, siyosiy-maʼmuriy karta, ijtimoiy- iqtisodiy karta, mavzuli karta, raqamli kartalar haqida maʼlumotga ega boʻladi.

Aksariyat oʻquvchilar karta va atlas tushunchalarini farqlamaydilar, ularni sinonim sifatida qoʻllaydilar va oʻrganish jarayonida oʻquvchilarda karta va atlas tushunchalarini farqlash koʻnikmalarini shakllantirishga harakat qilinmogʻi lozim.

Nazarimizda oʻquvchilarga karta haqida dastlabki maʼlumotlarni berishda, avvalo, bu soʻzning lugʻaviy maʼnosi bilan tanishish va quyidagi maʼlumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi:

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da karta (karta) soʻzi quyidagicha izohlangan: Yer sathining qogʻoz, taxta kabi tekislikka chizilgan shartli tasviri. *Geografik karta*. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida karta haqida quyidagi maʼlumotlarni oʻqiymiz: karta (yun. Chartes – varaq yoki xat yoziladigan papirus) karta – Yer yuzasi, boshqa osmon jismlari yoki kosmik fazoning matematik aniq belgilangan, kichraytirilgan, umumlashtirilgan tasviri. Qabul qilingan shartli belgilar sistemasida ularda joylashgan obyektlar koʻrsatiladi. Oʻyin kartalari dastlab Sharq xalqlarida paydo boʻlgan, degan naql bor<sup>1</sup>.

Koʻpgina tadqiqotlarda koʻrsatilishicha, oʻqituvchi materialni shunchaki bayon etmasligi, oʻquvchilarga tayyor xulosalar hamda umumlashmalarni aytib bermasligi lozim. Oʻquvchilarning fikrini oʻrganiladigan obyektga jalb qilish, muammoli vaziyat yaratish, ularning diqqatini safarbar qilish, tafakkurini faollashtirish, taʼlimdagi loqaydlikni bartaraf etish, oʻquvchilarni kuzatishga, tasavvur qilishga, eslab

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси 9- жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат миллий нашриёти, 2005, 395-б.

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

qolishga, ijodkorlikka, ya‘ni olgan bilimlari bilan kuzatilgan hayotiy faktlar va hodisalarga taqqoslashni o‘rgatish, shu asosda to‘g‘ri xulosalar va umumlashmalar chiqarishga odatlantirish to‘g‘ri yo‘ldir.

Geografik kartalardan o‘qitishning barcha shakllarida foydalanish mumkin; dars berishda, amaliy ishlarda, mustaqil ishlarda, bilimlarni baholashda va x.k.

O‘quvchilarni geografik kartalarni tuzilishini tushuntirishga o‘rgatish uchun joyda amaliy ishlar olib boriladi, joy rejasi bilan ishlanadi, gorizontallarni o‘qish bo‘yicha amaliy ishlar bajariladi, daraja to‘ri bilan mashq qilinadi, turli kartalar solishtiriladi, nuqtalarni geografik kordinatalari aniqlanadi, turli masshtablar bilan mashq qilinadi. Kartalarni tushunishini eng yaxshi yo‘li joyni o‘rganish va uni kartada qanday tasvirlanganligini aniqlashdir. Bundan tashqari globusdan kartaga o‘tish, rejadan geografik kartaga o‘tish orqali ham geografik kartalarni tuzilishini tushunishga yordam beradi. Mazkur usullar yordamida o‘quvchilarni daraja to‘ri, kartografik yiriklashtirish (generalizatsi) va geografik kartalarni tushuntirishga imkon beradi.

Geografiya o‘qitish metodikasida geografik kartalarni o‘rganishning uchta muhim vazifasi ko‘rsatiladi. Bular:

1. o‘quvchilarni kartani tushunishga;
2. kartani o‘qishga;
3. kartani bilishga o‘rgatishdan iborat. Ayniqsa kartani tasniflash, o‘quvchilarga kartalarning turlari haqida ma‘lumot berish ta‘lim sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Kartalar tasnifi quyidagi usulda bayon qilinsa, o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirishda qiziqish paydo bo‘lishi va tez idrok qilishi mumkin deb hisobladik. Buning uchun o‘quvchilarga shunday savol bilan murojaat qilinadi: **Kartalar nima uchun kerak?**

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi



O‘quvchilarning javoblari yozuv taxtasida yoki flipchart qog‘ozga yuqoridagi tarzda yozib boriladi.

Kartalarning asosiy belgilarini tushuntirishda o‘quvchilarni kichik guruhlariga ajratish, guruhlariga savollar yozilgan kartochkalar, dunyo va yarimsharlar kartasi, O‘zbekiston Respublikasi kartasi, Yer qobig‘ining tuzilishi, tabiat zonalari, iqlimi va boshqa, shuningdek, turistik kartalar taqdim qilish, ma‘lum vaqt oralig‘ida guruhda ish olib borgan o‘quvchilarning topshiriq yuzasidan taqdimotini tashkil qilish lozim. Guruhlar ishini tahlil qilish, zarur o‘rinlarni to‘ldirish, o‘qituvchining qo‘shimcha ma‘lumotlari mavzuni yanada chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

O‘quvchilarga yuqoridagi kabi usullar orqali karta haqida ma‘lumot berish, kartalardan foydalanish yo‘llarini o‘rgatish, mushohadaga undash, xulosalar chiqarishga yetaklash ularning geografiya faniga qiziqishlarini orttiradi, bilimlarini boyitadi.

Bu ko‘rgazmali qurol yaxshi natijalar berishini o‘tkazgan ko‘p yillik tajribalarda sinab ko‘rilgan, natijada o‘quvchilar kartalarni oson o‘zlashtirib oldilar. Demak, geografik kartalar darslarning qiziqarli va samarali o‘tishini ta‘minlaydi.

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

Maʼlumki, har qanday fan qatorida hozirgi zamon geografiya fani ham oʻquvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmogʻi lozim. Bunda, bizning fikrimizcha, darslarni samarali, koʻrgazmali qurollar asosida oʻtish yaxshi natija beradi. Shuning uchun ilgʻor tajribalarni sinab koʻrish, ularni ommalashtirish, koʻrgazmali qurollarni koʻpaytirish talab etiladi.

Karta maktabda oʻquv jarayonda oʻquvchilarni faolligini kuchaytirishda, fanni mustaqil oʻrganish va unga qiziqishni oshirishda, geografiyani hayot bilan bogʻlashda, oʻquvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi 9-jild. –T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat milliy nashriyoti, 2005, 395-b.
2. Geografiya 7-sinf darsligi. Respublika taʼlim markazi Toshkent 2022y.11-b.
3. Tabiiy fanlar 6-sinf darsligi. Respublika taʼlim markazi Toshkent 2022y.91-b.
4. Gaypova R. TRENDS IN ORGANIZING GEOGRAPHY LESSONS THROUGH UNTRADITIONAL METHODS //International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 1. – №. 2. – С. 1060-1063.
5. Tursinbaevna G. R., Muzapparovna T. Z., Turganbaevna K. M. The implementation of innovative technologies in teaching geography //International Journal of Pedagogics. – 2023. – T. 3. – №. 10. – С. 53-56.
6. Гайпова Р., Турдыбекова З., Байрамова А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1037-1041.